

ADABIYOTSHUNOSLIK NAZARIYASI¹ Sh.O.Mamayoqubova² Abdullayeva Dilnavoz Bahodir qizi¹ Samarkand State Institute of Foreign Languages
Department of Theory of English Language and Literature

Email: mamayoqubovashahlo@gmail.com

Tel: +998937261746

² Student of Samarkand State Institute of Foreign Languages:

Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi:

e-mail: abdullayevadilnavoz224@gmail.com

Telefon raqami: 90 656 66 23

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7597396>

Anotatsiya. Adabiyot va san'at kishilarning olamni idrok etishi, hayot tashvishlarini anglashiga ko'maklashadi. Barcha fanlar birlashganda ham odamlarga hayot murakkabliklarini, insonning ong osti dunyosi jumboqlari to'g'risida adabiyotchalik tasavvur bera olmaydi. Jamiyatni ma'naviy yuksaklikka yetkazish, komil insonni tarbiyalash bizlarning dastlabki burchimizdir. Ma'naviy kamolot tarbiyasining eng kerakli omillaridan biri, milliy, madaniy, ma'naviy merosimiz hisoblangan adabiyotimiz mutolasidir.

Kalit so'zlar. Adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi, adabiy tanqid, Matnshunoslik, ob'ekt, atributsiya, bibliografiya, kitobiyot, adabiy nazariy fikrlar, adabiyotning ijtimoiy vazifalari.

"Adabiyot yashasa -millat yashar". Cho'lpon. Adabiyotshunoslik — badiiy adabiyotni, uning mazmun-mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari, paydo bo'lish va rivojlanish bosqichlari, ijtimoiy funksiyasi, ijodiy jarayon qonuniyatlarini o'rganadigan fan hisoblanadi: adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi va adabiy tanqidni o'z ichiga oladi. A.ning ildizi maqol, qo'shiq, doston singari xalq og'zaki ijodi namunalari yuzasidan bildirilgan ilk mulohazalarga borib boglanadi. Mas, Mahmud Koshg'ariyning „Devonu lug'otit turk“ asarini adabiyotshunoslikni bosh asosi deb hisoblasak maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu asarda joy olgan matallarga, badiiy so'z unsurlariga ilmiy-tekstologik munosabat, o'sha davr adabiy janrlari haqidagi fikrlar adabiyotshunoslikning olis tarixidagi ko'rinishidir. Adabiyotshunoslik ilmiga oid teran qarashlar Foro-biining „She'r san'ati...“ kitobida mu-fassal bayon qilingan shu bilan birga ilmiy va she'riy yo'llar bilan ochib berilgan.

Unda she'riy asarning yaralish tabiati, ijodkor shaxsi va mahorat muammolari, so'z qadri xususida fikr yuritiladi. 11-asrda yashagan adabiyotshunos olim Abdulqodir Jur-joniyning „Asror ul-balog'a fi-ilmu bayon“ („Bayon ilmida balog'at sirlari“) asarida so'z san'atidagi shakl va mazmun masalasiga alohida urg'u berilsa, 13-asrda yashagan qomusiy olim Kays Roziyning „Kitob ul-mo'jam fi-maoyiri ash'or il-ajam“ („Ajam she'riyati me'yori qomusi“) kitobida nazariy masalalar — aruz tizimi, poetik san'atlar, she'riy janrlar tahlil etilgan. Adabiyot nazariyasi esa-so'z san'atining mohiyati, ijtimoiy tabiati, taraqqiyot qonunlari, kishilik va tuzumlar rivojida o'rni va ahamiyatini, o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etadi.

Matnshunoslik (tekstologiya- (lotincha) "textus"-asos, bog'lanish, "logos"-so'z, fan)-badiiy asarlarning asl matnini yaratish bilan shug'ullanadi. Adabiyotshunoslik atamasi keng ma'noda umuman yozma adabiyot, yozilgan narsalar, bosilgan kitoblarni anglatadi. Tor ma'noda esa badiiy sizni, san'at turlaridan biri, so'z san'ati bo'lgan badiiy adabiyotni anglatadi. Adabiyot

nazariyasi esa- badiiy adabiyotning qonun qoidalari, hayotni badiiy aks ettirish hamda adabiyot taraqqiyotining qonuniyatlari to'g'risidagi fan hisoblanadi. Sharq mamlakatlarida adabiyotshunoslikda nazariy fikrlar asosan X asrdan boshlab yozilgan Forobiy "Sher san'ati", Beruniyning "Osor ul-boqiya" va "Hindiston" asarlarida adabiyot haqida juda ko'p ma'lumotlar berilgan.

Masalan: hindlarning she'r tuzilishi haqida ma'lumot beradi. Alisher Navoiy "Mezon ul-avzon" Bobur "Muhtasar" kabi asarlarida adabiyot nazariyasining ba'zi bir masalalari yoritiladi. Adabiyotshunoslikning quyidagi asosiy tarkibiy qismlarga bo'linadi. Adabiyotshunoslik- adabiyot nazariyasi, i adabiyot tarixi va adabiy tanqid kabi asosiy tarkibiy qismlardan iboratdir. Matnshunoslik, atributsiya, bibliografiya, kitobiyot esa uning sohalaridan hisoblanadi. Adabiyot nazariyasi-so'z san'atining mohiyati, ijtimoiy tabiati, taraqqiyot qonunlarini, kishilik va tuzumlar rivojidadagi o'rni va ahamiyatini, o'ziga xos xususiyatlarni tadqiq etadi va takomillashtiradi, badiiy asarlarning tahlil qilish me'zonlari va unga baho berish meyorini belgilaydi. Eng asosiysi, badiiy mahoratning hamma qirralarni keng va chuqur o'rganadi, va shu asosda umrboqiy mumtoz asarlarning qalbini, uning qarida yotgan poetik nurni kashf qiladi.

A. Fitratning "adabiyot qonunlari", O'ZFAning ikki tomlik "Adabiyot nazariyasi" akadem nashri, I. Sultonning "Adabiyot nazariyasi", H. Umirovning "Adabiyot nazariyasi" va shu kabi darsliklar, tadqiqot va qo'llanmalarning o'ziyoq -adabiyot nazariyasi faniga qiziqishning kuchliligidan dalolat beradi. Adabiyot tarixiga keladigan bo'lsak-"Predmet tarixisiz predmetning nazariyasi bo'lishi mumkin emas", shu bilan birga adabiyot nazariyasiz adabiyotning tarixi haqida hatto fikr bo'lishi ham mumkin emas. Adabiyot tarixi so'z san'atining vujudga kelishidan boshlab to bugungacha rivojlanish tarixini tadqiq etadi. Hayot va jamiyatning tarixiy taraqqiyotida badiiy adabiyotning ahamiyati, tamoyillarini, ular o'rtasidagi an'ana va yangiliklarni, ijodkorlarning hayoti va ijodiy faoliyatlarini davrlashtirish prinsiplarini talqin qiladi. Adabiyot tarixi 2 ta katta davrda bo'lib o'rganiladi. Birinchisi: eng qadimgidan to XX asrgacha bo'lgan davr - mumtoz adabiyot tarixi deyiladi. Ikkinchisi: XX asr va XXI asr boshlari adabiyoti - hozirgi zamon adabiyoti deyiladi.

Adabiy tanqid - har bir davrning adabiy hodisalari. Adabiy tanqid ilmi va san'atining dialektik o'zaro aloqasining birligidan tashkil topgan "insonshunos"lik hisoblanadi. Shu sababdan V.G.Belenskiy "Har ikkisining mazmuni bir, farqi faqat shakldadir", -degan iboralari yodimizga tushsa ajab emas. Demak tanqidiy asar - san'at asari bo'lishi va unda ilmiylik, chuqurlik, ta'sirchanlik samimiy bo'lishi shartdir, ayni paytda esa, hayotni badiiy o'zlashtirish jarayonini o'rganuvchi va shu jarayon oqimiga ta'sir ko'rsatuvchi omildir.

"Matnshunoslik"-u turli davrlarda yaratilgan xattotlar tomonidan ko'chirilgan yoki bir necha bor nashr etilgan asarlarning nusxasi yoxud nashrini aniqlaydi. Shu bilan birga original variantini nusxalardan tozalaydi va tushib qolgan o'rinlarni tiklaydi. Masalan: "Mahabxoratning matni 1919-1967-yillar davomida mashhur teksolog hind olimi R.G.Bxandarkar boshchiligida tiklangan. Buning uchun 1250 ta qo'lyozma o'rganilgan va shular orasida 734 tasigina tanlab asos qilib olingan. Uning hajmi 13 ming betdan iborat tanqidiy matn hisoblanib va bu tanqidiy matn 100 ming shlok (1 shlok 2 misra) ya'ni 200 ming misraga yaqin bo'lgan.

Kitobiyot-turli tuman asarlarning tematik va xronologik ro'yxatini tuzadi , ularning har biriga qisqacha ma'lumotlarini kiritib ketadi va son sanoqsiz adabiyotlar orasidan keragini tez va oson topib olishni ta'minlaydi. Antributsiya esa muallifi noma'lum bo'lgan asarlarning yaratuvchisini, asar yozilgan joyni, uning yozilgan vaqtini aniqlaydi. Bibliografiya - badiiy adabiyot va adabiyotshunoslikka oid adabiyotlar ro'yxatini tuzish, ularga annotasiya , obzar yozish bilan shug'ullanadigan soha hisoblanadi. Xulosa qilib shuni aytish mukinki, badiiy adabiyotning jamiyat hayotidagi o'rnini tasavvur qilish uchun u bajarayotgan ijtimoiy vazifalar nimalardan iborat ekanligini bilish lozim. Badiiy adabiyotning eng muhim vazifasi -insonni komillik sari yetaklashidir . Bundan tashqari adabiyot bilish, kommonikativlik, tarbiyaviy va estetik funksiyalarni ham amalga oshiradi. Badiiy adabiyotning inson aqli va ma'naviy kamolotiga kuchli ta'sir ko'rsatadi!

References:

1. Karomat Mullaxo'jayeva. "Mumtoz adabiyot bugunning nigohida ".- T.:--2013.
- 2.F.K.Karimov. "O'zbeki adabiyoti tarixi" .--T.:--1975 . 11-13-betlar.
3. K.Qurambayev."Adabiyotshunoslik asoslari" fanidan ma'ruzalar matni .Nukus 2011.
- 4.Hotam Umarov. "Adabiyotshunoslik nazariyasi" .T.:--2004. 7-10 -betlar.
- 5.G.Xalliyeva . "Adabiyotshunoslik". T.:--2017. 5 -10 -betlar.